



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</i>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish .....	15
<i>Elmanov Abbos Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</i>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli .....	19
<i>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	28
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati.....	33
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi .....	37
<i>Davlatova Zebo Haydarovna</i>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	40
<i>Ochilova Farida Baxriddinovna</i>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari.....	44
<i>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</i>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<i>Sevara Mamatkarimova</i>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<i>Курбанова Шайра Исмаиловна</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	63
<i>Muminova Feruza Farxodovna</i>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati.....	70
<i>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	74
<i>Saidova Dilnoza Maripovna</i>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<i>Дмитрий Валерьевич Пупонин</i>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям .....	82
<i>Муксинова Динора Азаматовна</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti .....	87
<i>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</i>	



# KATTA YOSHDAGI GURUH BOLALARIDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINNING ROLI

Ergasheva Farangiz Umidjon qizi  
 Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich  
 Samarqand davlat pedagogika instituti professori

**Annotatsiya:** Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish (self-regulation) qobiliyatini rivojlantirishda o'yin faoliyatining ahamiyati yoritiladi. O'z-o'zini boshqarish hissiyotlarni nazorat qilish, xatti-harakatlarni rejalashtirish hamda ijtimoiy vaziyatlarga moslashishni o'z ichiga oladi. Mazkur qobiliyatni shakllantirishda o'yin yetakchi vosita sifatida namoyon bo'lib, rolli, didaktik va ijodiy o'yinlar orqali diqqat, fikrlash, hamkorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Tadqiqot natijalari o'yin faoliyati o'z-o'zini boshqarishni shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** katta yoshdagi guruh bolalari, o'yin faoliyati, o'z-o'zini boshqarish, self-regulation, maktabgacha ta'lim, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, ijodiy o'yinlar.

**Abstract:** The importance of play activity in developing self-regulation skills in older preschool children is examined. Self-regulation includes controlling emotions, planning behavior, and adapting to social situations. The formation of this ability is supported through play as the leading activity, where role-playing, didactic, and creative games contribute to the development of attention, thinking, cooperation, and independent decision-making skills. The results indicate that play activity is an effective pedagogical tool for fostering self-regulation in early childhood education.

**Key words:** older preschool children, play activity, self-regulation, preschool education, role-playing games, didactic games, creative games.

**Аннотация:** Раскрывается значение игровой деятельности в развитии саморегуляции у детей старшего дошкольного возраста. Саморегуляция включает контроль эмоций, планирование поведения и адаптацию к социальным ситуациям. Формирование данной способности осуществляется через игру как ведущий вид деятельности, при этом сюжетно-ролевые, дидактические и творческие игры способствуют развитию внимания, мышления, сотрудничества и самостоятельного принятия решений. Результаты исследования показывают, что игровая деятельность является эффективным педагогическим средством формирования саморегуляции.

**Ключевые слова:** дети старшего дошкольного возраста, игровая деятельность, саморегуляция, дошкольное образование, сюжетно-ролевые игры, дидактические игры, творческие игры.

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning kelajak avlodini har tomonlama rivojlantirishda asosiy poydevor bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda bolalarning aqliy, hissiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ayniqsa, katta yoshdagi guruh bolalari, ya'ni 5–6 yoshdagi bolalar maktab ta'limiga tayyorgarlik jarayonida muhim psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradilar. Bu davrda bolalarda mustaqillikka intilish kuchayadi, o'z xatti-harakatlarini anglash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, qoidalarga rioya qilish va, eng muhimi, o'z-o'zini boshqarish (self-regulation) ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Shu sababli aynan ushbu yosh davrida self-regulationni rivojlantirish pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O'z-o'zini boshqarish qobiliyati bolaning o'z hissiyotlarini nazorat qilish, diqqatini jamlash, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, bajarish va zarur hollarda o'z harakatlarini tahlil qilib, tuzatish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar bolaning nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga, balki uning ijtimoiy munosabatlari, tengdoshlari bilan muloqoti, oiladagi va jamoadagi xulq-atvoriga ham bevosita ta'sir ko'rsa-

tadi. O'z-o'zini boshqarish rivojlangan bola o'zini vaziyatga mos tutadi, hissiyotlarini boshqara oladi, muammoli holatlarda to'g'ri qaror qabul qiladi va mustaqil harakat qilishga intiladi. Bu esa uning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin faoliyati eng samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Chunki o'yin bola uchun tabiiy ehtiyoj va yetakchi faoliyat turi hisoblanib, u orqali bola atrofdagi voqelikni o'rganadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va o'z xatti-harakatlarini boshqarishni asta-sekin o'zlashtiradi. O'yin jarayonida bola qoidalarni qabul qilishga, ularga amal qilishga, navbat kutishga, boshqalar bilan hamkorlik qilishga va turli vaziyatlarda o'zini nazorat qilishga o'rganadi. Bu jarayon bevosita o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi <sup>[1, 2]</sup>.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida tashkil etilishi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu dastur maktabgacha yoshdagi bolalarning kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, jumladan, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. "Ilk qadam" dasturida o'yin faoliyati asosiy ta'lim vositasi sifatida belgilangan bo'lib, u orqali bolalarda mustaqillik, o'zini boshqarish, hamkorlikda ishlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu esa self-regulationni rivojlantirishda dasturiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, rolli o'yinlar bolalarda ijtimoiy rollarni tushunish va ularni bajarish orqali o'z xatti-harakatlarini moslashtirishni rivojlantiradi. Bola "shifokor", "o'qituvchi", "do'konchi" kabi rollarni bajarish jarayonida o'zini nazorat qilishni, boshqalar bilan muloqot qilishni va vaziyatga mos harakat qilishni o'rganadi. Didaktik o'yinlar esa bolalarda diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash, taqqoslash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantiradi. Ijodiy o'yinlar esa bolaning tasavvurini kengaytiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va muammoli vaziyatlarga noodatij yechim topish qobiliyatini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, o'yin faoliyatini to'g'ri tashkil etish pedagogdan katta mahorat talab qiladi. Tarbiyachi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'yin muhitini yaratishi, ularni faol ishtirok etishga undashi va kerakli vaziyatlarda yo'naltiruvchi rolni bajarishi lozim. Bolaga erkinlik berish bilan birga, ma'lum qoidalar va tartibni ham o'rgatish muhimdir, chunki aynan shu muvozanat o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi, balki ularning psixologik rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'yin o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda eng samarali va tabiiy pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yin faoliyatining nazariy asoslari, uning pedagogik ahamiyati hamda amaliy qo'llash usullari keng ilmiy tahlil qilinadi <sup>[3, 4]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining shakllanishi psixologik rivojlanishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonni tushuntirishda Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy nazariya muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, bolaning o'zini boshqarish qobiliyati kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro faoliyat jarayonida shakllanadi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali bola ijtimoiy qoidalarni o'zlashtiradi va ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantiradi.

Jean Piaget esa bolalarning intellektual rivojlanish bosqichlari orqali ularning o'z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati asta-sekin shakllanishini ta'kidlaydi.

O'zbek olimlari tadqiqotlarida ham mazkur masala keng yoritilgan. Jumladan, V.M. Karimova ta'kidlaganidek, katta yoshdagi guruh bolalarida ijtimoiy tajriba va mustaqil faoliyat elementlari kuchayib boradi, bu esa o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

E.G. G'oziev esa umumiy psixologik qonuniyatlar asosida bolaning xulq-atvorini tartibga solish jarayoni ongli faoliyat bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarda o'yin faoliyati asosiy vosita sifatida namoyon bo'lib, bolalarning emotsional holatini boshqarish, diqqatni jamlash va ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy tadqiqotlar ham o'yinning o'z-o'zini boshqarishdagi rolini tasdiqlaydi. Albert Bandura tomondan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar xulq-atvorni kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtiradi, bu jarayonda o'yin muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, Adele Diamond 2013-yilda olib borgan tadqiqotlarida ijro etuvchi funksiyalar, jumladan, o'z-o'zini boshqarish, aynan o'yin faoliyati orqali samarali rivojlanishini asoslab beradi. Demak, o'yin bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida, xususan, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yin faoliyatining rolini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Ma'lumotlar kuzatish, pedagogik eksperiment va diagnostik metodlar orqali to'plandi. Dastlab tabiiy kuzatish usuli yordamida bolalarning erkin va tashkil etilgan o'yin jarayonidagi xatti-harakatlari, emotsional reaksiyalari va o'zini boshqarish elementlari qayd etildi. Keyingi bosqichda maxsus tashkil etilgan rolli va qoidalari o'yinlar asosida pedagogik eksperiment o'tkazilib, bolalarning o'zini tutish, diqqatni jamlash va ijtimoiy qoidalarga rioya qilish darajasi baholandi. Qo'shimcha ravishda, pedagoglar va tarbiyachilar bilan suhbat hamda savolnoma usullari orqali sifatli ma'lumotlar yig'ildi.

Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat tahlil usullari asosida qayta ishlanib, taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish orqali natijalar chiqarildi. Statistik tahlilda foizli ko'rsatkichlar va dinamik o'zgarishlar aniqlanib, o'yin faoliyatining o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalariga ta'siri ilmiy asosda baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish (self-regulation) qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimining eng muhim psixologik-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu jarayon bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy muhitga moslashuvi, ta'lim jarayoniga tayyorligi hamda kelajakdagi muvaffaqiyatli hayot faoliyatining poydevorini yaratadi. O'z-o'zini boshqarish tushunchasi bolaning o'z xulq-atvori, hissiyotlari, diqqat-e'tibori, fikrlash jarayoni va harakatlarini ongli ravishda nazorat qila olishi, maqsad qo'yishi, rejalashtirishi va ushbu maqsadga erishish uchun o'z faoliyatini tartibga solishi bilan ifodalangani. 5–6 yoshli bolalarda bu ko'nikma endigina shakllanayotganligi sababli uni rivojlantirishda o'yin faoliyati eng samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi, chunki o'yin bola uchun tabiiy, qiziqarli va ichki motivatsiyaga asoslangan faoliyat bo'lib, u orqali bola majburiy o'rganishsiz ham ijtimoiy va kognitiv ko'nikmalarni egallaydi.

Shu bilan birga, o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirishda faqat psixologik yondashuv emas, balki metodik yondashuvlar ham muhim o'rin tutadi, ya'ni tarbiyachi tomonidan o'yin faoliyatini maqsadli rejalashtirish, bosqichma-bosqich tashkil etish, didaktik vositalardan foydalanish va refleksiv tahlilni yo'lga qo'yish bolaning rivojlanish samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi katta guruh bolalarining psixologik rivojlanish xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, bu davrda diqqat hajmi kengayadi, xotira imkoniyatlari mustahkamlanadi, tasavvur va tafakkur jarayonlari sezilarli darajada rivojlanadi, biroq, shu bilan birga, impulsivlik, tez chalg'ish, hissiyotlarni to'liq boshqara olmaslik kabi holatlar ham saqlanib qoladi, shu sababli bola tashqi nazoratga tayanib harakat qiladi va asta-sekin ichki nazoratga o'tadi, aynan shu o'tish jarayonida o'yin faoliyati muhim "ko'priq" vazifasini bajaradi. Metodik jihatdan o'yin jarayoni maqsad, vazifa, mazmun, vosita va natija kabi komponentlarga asoslanishi kerak bo'lib, tarbiyachi o'yin maqsadini aniq belgilashi, bolalarning yosh xususiyatiga mos materiallar tanlashi va o'yin qoidalarni tushunarli qilib yetkazishi zarur.

O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida ularning psixik rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi, chunki o'yin jarayonida bola nafaqat atrofdagi dunyoni aks ettiradi, balki uni qayta yaratadi, modellashtiradi va o'z tasavvuriga ko'ra yangi vaziyatlarni hosil qiladi, shu orqali bola turli ijtimoiy rollarni bajaradi, masalan, ota-ona, shifokor, o'qituvchi, sotuvchi, haydovchi kabi rollar orqali u jamiyatdagi munosabatlarni tushunadi va ularga mos xatti-harakatlarni o'zlashtiradi <sup>[5, 6]</sup>.

Metodik yondashuvga ko'ra, rolli o'yinlar oldindan rejalashtirilgan ssenariy, vazifalar taqsimoti va yakuniy muhokama bosqichlari orqali tashkil etilishi bolaning refleksiv fikrlashini kuchaytiradi. O'z-o'zini boshqarishning asosiy tarkibiy qismlari kognitiv, emotsional va xulq-atvoriy komponentlardan iborat bo'lib, kognitiv komponent bolaning maqsad qo'yishi, rejalashtirishi, muammoni hal qilishi va qaror qabul qilishini o'z ichiga oladi, emotsional komponent esa bolaning his-tuyg'ularini anglash, ularni boshqarish va turli vaziyatlarga moslashuvini ta'minlaydi, xulq-atvoriy komponent esa real harakatlarni nazorat qilish, qoidalarga rioya qilish va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirishni bildiradi. Metodik jihatdan ushbu komponentlarni rivojlantirish uchun differensial yondashuv qo'llanilib, har bir bolaning individual rivojlanish darajasiga mos topshiriqlar berilishi lozim. O'yin jarayonida ushbu uch komponent bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi, chunki bola bir vaqtning o'zida ham fikrlaydi, ham his qiladi, ham harakat qiladi.

Rolli o'yinlar o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri bo'lib, bunda bola o'z rolini bajarish uchun qoidalarga rioya qiladi va ichki nazoratni faollashtiradi, masalan, "oila" o'yinida bola ota yoki ona rolini bajarib mas'uliyatni his qiladi, "do'kon" o'yinida esa navbat kutish, hisob-kitob qilish va muloqot madaniyatini o'zlashtiradi.

Didaktik o'yinlar esa metodik jihatdan aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ular bosqichma-bosqich murakkablashib borishi, vizual materiallar va muammoli topshiriqlar asosida tashkil etilishi orqali bolalarda diqqatni jamlash va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Ijodiy o'yinlar esa bolaning mustaqil fikrlashini, tashabbuskorligini va

ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, bunda tarbiyachi faqat sharoit yaratib beradi, bola esa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va baholaydi.

Metodik yondashuvda o'yin yakunida refleksiya o'tkazish, ya'ni bola nima qilgani, qanday his qilgani va qanday xulosa chiqarganini tahlil qilish muhim hisoblanadi, chunki bu o'z-o'zini boshqarishning ichki mexanizmlarini mustahkamlaydi.

O'yin jarayonida emotsional o'zini boshqarish ham shakllanadi, chunki bola quvonch, hayajon, mag'lubiyat va muvaffaqiyat kabi holatlarni boshdan kechiradi va ularni boshqarishni o'rganadi. Tarbiyachi esa metodik jihatdan yo'naltiruvchi, kuzatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolni bajarishi kerak bo'lib, ortiqcha aralashuv bolaning mustaqilligini cheklashi mumkin. Ijtimoiy o'yinlar esa bolalarda hamkorlik, muloqot, kelishuv va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ijtimoiy o'zini boshqarishni kuchaytiradi.

Shuningdek, o'yin faoliyati maktabga tayyorgarlik jarayonida ham muhim rol o'ynaydi, chunki o'z-o'zini boshqarish rivojlangan bola darsda diqqatni jamlay oladi, topshiriqlarni mustaqil bajaradi va o'qituvchi ko'rsatmalariga amal qiladi, bu esa uning akademik muvaffaqiyatini ta'minlaydi <sup>[7, 8]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish (self-regulation) qobiliyatini rivojlantirishda o'yin faoliyati eng muhim va samarali pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin jarayoni bolaning tabiiy ehtiyojlari va ichki motivatsiyasiga tayangan holda uning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini yaxlit tarzda ta'minlaydi. Ayniqsa, rolli, didaktik va ijodiy o'yinlar orqali bolalarda diqqatni jamlash, maqsad qo'yish, rejalashtirish, qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqarish va ijtimoiy qoidalarga rioya qilish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi.

O'yin davomida bola turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali jamiyatdagi munosabatlarni anglaydi, hamkorlik qilish va o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan muvofiqlashtirish ko'nikmalarini egallaydi, bu esa uning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi hamda maktab ta'limiga tayyorgarligini oshiradi. Shu bilan birga, o'z-o'zini boshqarish jarayonining samarali shakllanishida tarbiyachining yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi roli muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u bolalarning mustaqilligini saqlagan holda ularni maqsadli faoliyatga yo'naltiradi.

Umuman olganda, o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishning tabiiy, ilmiy asoslangan va samarali yo'li bo'lib, u bolaning har tomonlama rivojlanishi hamda mustaqil shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida: Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti. – Toshkent, 2019.
3. Karimova V.M. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 256 b.
4. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 320 b.
5. Vygotsky L.S. Voobrajenie i tvorchestvo v detskom vozraste. – M.: Pedagogika, 1967. – 93 s.
6. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 176 p.
7. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
8. Diamond A. Executive Functions // Annual Review of Psychology. – 2013. – Vol. 64. – P. 135–168.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.